

№ 2 (6)
2025



ÓZBEKSTAN MÁMLEKETLIK KONSERVATORIYASI
NÓKIS FILIALI

MUSIQA VA SAN'AT AXBOROTNOMASI / ВЕСТНИК МУЗЫКИ И ИСКУССТВА / BULLETIN OF MUSIC AND ART

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER XABARSHÍSI

ILIMY-METODIKALÍQ JURNAL





**ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ JOQARÍ BILIMLENDIRIW,
ILIM HÁM INNOVACIYALAR MINISTRIGI
ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ MÁDENIYAT MINISTRIGI
ÓZBEKSTAN MÁMLEKETLIK KONSERVATORIASÍ
NÓKIS FILIALÍ**

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER XABARSHÍSÍ
Ilimiy-metodikaliq jurnal

MUSIQA VA SAN'AT AXBOROTNOMASI
Ilmiy-uslubiy jurnal

ВЕСТНИК МУЗЫКИ И ИСКУССТВА
Научно-методический журнал

BULLETIN OF MUSIC AND ART
Scientific-methodical journal

№ 2(6)/2025

SHÓLKEMLESTIRIWSHI:

Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası Nókis filiali

Bas redaktor: – Allanbaev Rudakiy, *professor*

Juwaplı xatker: – Kamalova Difuza, *filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori, docent.*

REDKOLLEGIYA AGZALARI:

OZODBEK NAZARBEKOV – Ózbekstan Respublikası Mádeniyat ministri, professor;

AZIZBEK TURDIEV – Ózbekstan Respublikası Mektepge shekemgi hám mektep bilimlendiriw ministri orınbasarı, filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD);

KAMOLIDDIN URINBAYEV – Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası rektori, professor;

AMANULLA RIZAYEV – kórkem ónertanıw ilimleriniń kandidati, professor;

HIKMAT RAJABOV – professor;

ORAZALI TOSHMATOV – professor;

BAXT AZIMOV – pedagogika ilimleri kandidati, docent,

MUHAMMAD TOLAXOJAEVA – kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, professor;

MARFUA XAMIDOVA - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, professor;

BOLTABOY SHODIYEV - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, docent;

OZODA TOSHMATOVA - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, professor;

SAYYORA ĞAFUROVA – professor;

OYDIN ABDULLAEVA – professor;

IRODA MIRTALIPOVA – kórkem ónertanıw ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD);

PARAXAT MAMUTOV – kórkem ónertanıw ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD);

QURBANBAY JARIMBETOV – filologiya ilimleriniń doktori, professor;

ALIMA BERDIMURATOVA – filosofiya ilimleriniń doktori, professor;

ZIYADA BEKBERGENOVA – filologiya ilimleriniń doktori (DSc), professor;

ARTIQBAY EREJEPOV – pedagogika ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD), docent;

JANABAY MARZIYAEV – filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD), docent;

Jurnal qaraqalpaq, ózbek, rus hám ingliz tillerinde baspadan shıǵarıladi. Jurnal Ózbekstan Respublikası Prezidenti Administraciyası janındaǵı Málimleme hám ǵalaba kommunikaciýalar agentligi tárepinen mámleketlik dizimnen ótkerilgen. №047569 4-oktyabr, 2022-jıl.

Ózbekstan Respublikası Joqarı Attestaciya Komissiyasınıń 2024-jıl 30-iyuldaǵı 358-sanlı qararı tiykarında jurnal 17.00.00-Kórkem ónertanıw ilimleri jónelisi boyınsha dissertaciya nátiyjelerin baspadan shıǵarıw ushın arnalǵan jetekshi ilimiy jurnallar qatarına kiritilgen.

Redakciya mánzili: Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası Nókis filiali Sh.Abdirov 2-jay.

E-mail: ozdknf@edu.uz, UZDK_Nukus@exat. Tel: 551020540 Veb-sayt: <https://science.uzdknf.uz/>

ISSN-2181-4112

KOMPOZITORLAR IJODIDA BALLADA JANRINING SHAKLLANISHI VA BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Abatbaeva R.A.

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filiali

Annotatsiya: Ushbu maqolada musiqiy janrlaridan biri – ballada haqida so‘z boradi. Dastlab qayerda va qanday ijod turida paydo bo‘lgani kimlar murojat qilib asarlar yaratgani, bugungi kunda o‘zbek va qoraqalpoq kompozitorlarining ijodidagi ahamiyati haqida ma’lumotlar keltirilgan. Ushbu janr asosan romantik, dramatik yoki tarixiy voqealarni ifodalovchi, hissiyotlarga boy kompozitsiyalarni o‘z ichiga oladi. Musiqiy ballada XIX asrda keng tarqalgan bo‘lib, dastlab Yevropa mumtoz musiqasida shakllangan. Keyinchalik esa xalq musiqasi, estrada va rok musiqasi yo‘nalishlarida ham rivojlandi. Balladalar ko‘pincha lirik qahramonning kechinmalari, muhabbat, ayriliq, sadoqat yoki fojiaiy voqealar asosida yaratiladi. Musiqiy jihatdan ular odatda sekin sur‘atli, melodik va ifodali bo‘lib, tinglovchiga chuqur hissiy ta’sir ko‘rsatishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Musiq, ballada, romans, simfoniya, orkestr, dramatik, janr, lirik, kompozitor, estrada, poema.

Аннотация: В данной статье рассматривается баллада, один из музыкальных инструментальных жанров. Приведены сведения о том, где и в каком виде творчества оно впервые появилось, кто обращался и создавал произведения, его значение в творчестве узбекских и каракалпакских композиторов на сегодняшний день. Этот жанр в основном включает в себя эмоционально насыщенные композиции, представляющие романтические, драматические или исторические события. Музыкальная баллада получила широкое распространение в XIX веке, первоначально сформировавшись в европейской классической музыке. Позже он развивался в направлениях народной музыки, эстрадной и рок-музыки. Баллады часто создаются на основе переживаний лирического героя, любви, разлуки, верности или трагических событий. С музыкальной точки зрения они обычно медленные, мелодичные и выразительные, направленные на глубокое эмоциональное воздействие на слушателя.

Ключевые слова: музыка, баллада, романс, симфония, оркестр, драматический, жанр, лирический, композитор, эстрада, поэма.

Abstract: This article discusses ballad, one of the musical instrumental genres. Information is provided on where and in what form of creativity it first appeared, who turned to and created works, and its significance in the works of

Uzbek and Karakalpak composers to date. This genre mainly includes emotionally rich compositions representing romantic, dramatic, or historical events. Musical ballad became widespread in the 19th century, initially formed in European classical music. Later, it developed in the directions of folk music, pop music, and rock music. Ballads are often created based on the experiences of the lyrical hero, love, separation, fidelity, or tragic events. From a musical point of view, they are usually slow, melodious, and expressive, aimed at deep emotional impact on the listener.

Keywords: music, ballad, romance, symphony, orchestra, dramatic, genre, lyrical, composer, pop, poem.

Kirish. Musiqaning oʻziga xos xususiyatlari, shakllari va uslublariga koʻra guruhlangan turlaridir. Har bir janr oʻzining tarixi, madaniyati va maqsadiga koʻra shakllangan. Badiiy asarlar orasida oʻziga xos oʻringa ega boʻlgan janrdir. U oʻzining dramatikligi, oʻziga xos hikoya qiluvchi qahramonlari va chuqur hissiyoti bilan ajralib turadi. Ballada koʻpincha xalq ogʻzaki ijodidan kelib chiqqan boʻlib, tarixiy voqealar, sevgi sarguzashtlari va afsonalar asosida shakllangan. Janrning paydo boʻlishi va rivojlanishi millatlar madaniyati va tarixi bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, u yillar davomida adabiyot va musiqada chuqur iz qoldirgan. Ballada janri bu lirik-epik musiqiy janr boʻlib, unda odatda syujetli hikoya (koʻpincha dramatik yoki romantik mazmunda) musiqa orqali ifodalanadi. Balladalar xalq musiqasidan boshlangan va keyinchalik badiiy-professional musiqaga kirib kelgan. “Ballada” soʻzi italyancha ballare – “raqsga tushmoq” soʻzidan kelib chiqqan. Dastlab bu italyancha xorovod qoʻshigʻi edi. XII-XIII asrlarda syujetli balladalarni saroy shoirlari va Yevropa boʻylab sayohat qilgan musiqachilar yozishgan. XV asrda janr Angliyada mashhur boʻldi. XVIII asr oxiri - XIX asr boshlarida ingliz va shotland shoirlari Tomas Persi, Valter Skott, Robert Byorns va boshqalar bu janrni qayta tiklab, unga yangicha, romantik ruh bagʻishladilar.

Asosiy qism. Ballada – bu hikoyaviy janr boʻlib, unda musiqiy va sheʼriy elementlar uygʻunlashadi. Musiqiy ballada koʻpincha voqeani, qahramonlikni, sevgi yoki dramani tasvirlaydi. Ballada turlari koʻp boʻlib shulardan bugungi kunda uchratishimiz va eshitishimiz mumkin boʻlganlardan vokal (matnli), cholgʻu (Shopen) va zamonaviy rok, pop va jaz balladalari kiradi. Bastakorlar Shopenning bir qismli shakllari yoki zamonaviy rok-balladalardan foydalangan holda turli shakllarda balladalar yaratdilar, ular musiqada syujet rivojini, epik hikoyani yoki dramatik rivojlanishni yetkazishga intildilar [7: 43]. Uning asosiy xususiyatlari

syujetlilik (voqealilik): balladada biror voqea, hayotiy holat yoki insoniy kechinmalar hikoya tarzida aytiladi. Bu jihati uni oddiy qo'shiqlardan ajratadi. Lirik va dramatik ohang: Balladalar ko'pincha chuqur his-tuyg'ularga boy bo'ladi. Tragediya, muhabbat, ayriliq, fidoyilik kabi mavzular keng yoritiladi.

Oddiy, ammo ta'sirchan musiqiy shakl – ballada odatda sekin, yumshoq tempda, ko'proq minor tonallikda bo'ladi. Uning musiqasi so'zlarga xizmat qiladi, ularni chuqurroq anglashga yordam beradi. Ijrochilik jihati – ballada odatda yakka ijro etiladi (vokal yoki vokal + cholg'u bilan). Biroq orkestrli variantlari ham mavjud. Balladaning turlari – xalq balladalar: Og'zaki an'ana orqali tarqalgan, odatda muallifi noma'lum bo'ladi. Masalan, ingliz, shotland yoki o'zbek xalq balladalar [8]. Badiiy balladalar (professional): Ma'lum kompozitorlar tomonidan yaratilgan, masalan, Frederik Shopen, Frans Shubert, Robert Shuman balladalarini yaratgan mashhur kompozitorlardir [6]. Estrada balladalar: Zamonaviy estrada musiqasida ballada keng tarqalgan. Masalan, sevgi, ayriliq, hayotiy iztiroblar haqida kuylangan estrada qo'shiqlari ballada janriga kiradi. Ba'zan “ballada” nomi qo'shiq, romans yoki vokal-simfonik asar bilan birga ishlatiladi (“ballada-poema”, “ballada-simfoniya”) ya'ni janr elementlari boshqa formatlarga singdirilgan shaklda keladi. Bu janr dastlab adabiyotda paydo bo'lib, keyinchalik shoirlardan keyin kompozitorlar ham balladalarga murojaat qildilar. 1832-yilda Peterburgda “Vasiliy Jukovskiyning Aleksandr Pleshcheev tomonidan ovoz va fortepiano uchun musiqaga asoslangan ballada va romanslari” nashr etildi. Bugungi kunga qadar ko'plab konsertlar dasturiga Mixail Glinka tomonidan Jukovskiy she'rlariga yozilgan “Tungi ko'rik” balladasi kiritilgan. 1891-yilda Pyotr Chaykovskiyning “Voyevoda” simfonik balladasi premyerasi bo'lib o'tdi. Bu dasturiy simfonik asarni kompozitor polyak shoiri Adam Mitskevichning Pushkin tarjimasidagi “Dozor” balladasi asosida yozgan [9].

Ballada O'zbek musiqasida ko'proq ishqiy-qahramonlik, falsafiy talqin kabi mavzularda paydo bo'lgan. Mutal (Mutavakkil) Burhonov “Ishq o'ti” (1939, Mashrab g'azali) – xonanda va simfonik orkestr uchun yozilgan ballada; O'zbekistondagi ballada janrining ilk namunalaridan biri hisoblanadi. Burhonov bastalagan qo'shiqlardan ba'zilari romans tipida, balladalarga yaqin dramatik va hissiy lug'atda bo'ladi. Dilorom Saydaminova ijodida ballada janrida asarlar borligi haqida qayd etilgan. Lekin, aynan qaysi asarlar “ballada” nomi ostida yozilgani yoki ballada formati to'liq bajarilgani haqida aniq ma'lumotlar kam. I.Akbarov, B.Zokirov kabi estrada qo'shiqlari, romanslari bilan tanilgan san'atkorlarning repertuarida ballada elementlari mavjudligi qayd etilgan. Masalan,

B.Zokirov qo'shiqlarida dramatika, hissiyotlar kuchi, romantik syujet mavjudligi sabab, ularning ba'zilar ballada sifatida qaralishi mumkin.

O'zbek klassik va zamonaviy musiqasida musiqiy ballada janri asosan XX asrning birinchi yarmidan boshlab rivojlandi. Ballada – bu adabiyotda, ayniqsa she'riyatda keng tarqalgan janr [1]. U ko'pincha doston va she'r elementlarini o'zida mujassam etgan bo'lib, ko'pincha sarguzasht, dramatik yoki romantik voqealarni tasvirlaydi. Balladalar ko'pincha xalq og'zaki ijodida shakllangan va keyinchalik yozma shaklga o'tkazilgan. Ballada so'zi fransuz tilidan kelib chiqqan bo'lib, “raqsmusht” yoki “qo'shiq” degan ma'noni anglatadi [2]. U ilk bor Yevropada o'rta asrlarda paydo bo'lgan. Dastlab, balladalar og'zaki ijod shaklida bo'lib, odamlar orasida qo'shiq va raqs bilan birga tarqalgan. XX asr Qoraqalpoq musiqa madaniyati, o'zining boy tarixi, an'anaviy cholg'u asboblari va xalq qo'shiqlari bilan ajralib turadi. Ushbu madaniyatning rivojlanishi ko'p asrlik tarixiy jarayonlarning mahsulidir va hozirgi kunda ham o'zining o'ziga xosligini saqlab kelmoqda. Qoraqalpoq xalq musiqasi, asosan, og'zaki an'analarga asoslanadi. Xalq qo'shiqlari va hikoyalarida turli mavzular – sevgi, qahramonlik, tabiiy hodisalar va kundalik hayot tasvirlanadi. Bu qo'shiqlar orqali xalq o'z tarixini, urf-odatlarini va qadriyatlarini avloddan-avlodga yetkazib kelgan. Qoraqalpoq musiqa madaniyatida milliy cholg'u asboblari muhim o'rin tutadi. Dutor, rubob, g'ijjak kabi asboblarning orqali ijro etilgan musiqalar xalqning ruhiyatini aks ettiradi. Ushbu asboblarning har biri o'ziga xos ijro uslubi va ohangga ega bo'lib, musiqaning mazmunini chuqurlashtiradi. Qoraqalpoq musiqa madaniyatini ilmiy o'rganish so'nggi yillarda faol ravishda amalga oshirilmoqda. Tadqiqotchilar xalq musiqasining tarixiy rivojlanishini, uning zamonaviy musiqadagi o'rnini va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganib, ilmiy asarlar yaratmoqdalar. Masalan, Ayjamal Turemuratova, Gulzada Bekmurodova, Shahida Berdixanovalar tomonidan yozilgan maqolada qoraqalpoq milliy musiqa san'ati tarixi va uning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan.

Qoraqalpoq xalqining ilk professional kompozitori, pedagog va madaniyat va san'at arbobi sifatida o'zining boy ijodiy merosi bilan tanilgan talantli taniqli ijodkorlardan biri Najimaddin Muxammeddinovning musiqiy merosi alohida o'rin egallaydi. N.Muxammeddinov musiqasida yorqin o'ziga xoslik, milliyik, optimistik kuy, ajralmas hayotiy energiya, dunyoni idrok etishning to'la tuyg'usi bilan ifodalanadi. Kompozitorning ijodida turli xil janrlar gavdalanib, tinglovchilar uchun va musiqa shaydolari uchun nafisligi bilan o'z aksini topgan. Ijodkorning o'z usuli va mohiyati bilan yaratgan asarlari orasida xalq uchun mudhish voqealarga sababchi bo'lgan butun jahon urushiga bag'ishlab yozilgan “Nareste”

nomli balladasini ta'kidlash maqsadga muvofiqdir [11: 60-66]. Ballada musiqa san'atida hikoya qiluvchi xarakteridagi qo'shiqqa yoki cholg'u pyesasiga, dramatik yoki liro-dramatik turidagi uyg'un qurilmaga bag'ishlab yaratilgan asar nomiga aytiladi [3: 37].

O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq shoiri, O'zbekiston Qahramoni I.Yusupovning qalamiga mansub "Náreste" haqidagi balladasiga bag'ishlab yaratgan asari xuddi bir-birini jipslashtirib sintemental noziklik bilan boshlanib, urushga, qayg'u-hasratga qarshi yomon ko'ruvchi tuyg'ularni uyg'otuvchi hodisalarni bayon qilganida, uning musiqiy zabardast, yerni tebratuvchi nola ohanglari, dramatism borgan sari hayqiradigan dramatismga aylanadi. Urush voqea-qirg'inlari unga qarshi xalqning kurashga o'tlanishlari singari katta optimistik tragediyani aks ettiradi. G'azabli otga mingan bu ballada, kompozitor tomonidan yaratilgan musiqiy estalik – haykal, begunoh ketgan go'daklarga bag'ishlangan-fashizmga la'nat o'qini otgan hasratli onaning xotira va qadrlash kunlari hasratli ona haykalining yonida eslashning o'zi ham mardlikdir.

Ballada dastlab skripkaning mayin tiniq, o'ziga xos noziklik bilan ijro qilib turgan lirik kuyi ohangi bilan boshlanadi. Kuyning ijrosiga keyinchalik violonchel, fortepiano cholg'ulari jo'r bo'lib, ushbu musiqiy trioning ya'ni uchlikning jo'rliqi fonida ilk bora taniqli qo'shiqchi O'zbekiston xalq artisti Bayram Matchanov tomonidan ijro etilgan. Balladani qo'shiqchi to'liqinli nolalarini, kuchli dramatism bilan deklamatsyalab maromiga yetkazib ijro qilgan. Undan so'ng Respublika ko'rik tanlovlar g'olibi Furqat Embergenov tomonidan bugungi kunda ijro qilinib kelinmoqda.

Muallif ushbu asarida so'z qudratiga urg'u berib, uni maromiga yetkazib ijro qilish uchun italyan operalari singari dramatishtatsiyalangan rechitativ uslubini mohirona foydalangan [4: 340-243]. Kompozitor asarning ijrosida ansamblga ham yakka ijroga ham erkinlik berib, o'zida bor iste'dodni, tajribasini barcha imkoniyati bor xususiyatlari bilan ovozini ishga qo'shib, avjini qo'yib yubormasdan yetganicha cho'za olgan. Rus kompozitori P.I.Chaykovskiyning "O'zingning o'y-hayollaringni cholg'u orqali to'liq yetkaza olmagan joyda faqat musiqa orqaligina har tomonlama yakuniga yetkazish mumkin" [12: 3], deganiday shoirning so'zini kompozitor musiqa tili orqali yanada rivojlantirib bera olgan. Ushbu ballada orqali qoraqalpoq musiqiy dasturida ilgari uchramagan yangi qo'shiq turini yangicha ohang, yangicha uslub va ijro bilan boyitdi. Bu asar shoir va kompozitorning o'tmishda bo'lgan voqea hodisalarning kuchli tuyg'ularini ikkita ijodkorning mehnat mahsuli asosida chuqur falsafiy o'y-hayollaridan yaralgan ajoyib bir asar paydo bo'ldi. Qo'shiqning asosiy mazmuni dunyoga

kiyimsiz kelgan oppoq momiqday pok go‘dakning ulug‘ligini ta’riflashga qaratilgan. Lekin go‘daklarning taqdiriga bir xil g‘amxo‘rlik qilinayaptimi? Shoir ham, kompozitor ham, ijro qilgan qo‘shiqchi yakka ijrochi ham bu yovuzlikka – yo‘q! yo‘q! hammasi emas!, deb barchasi birdaniga fashizmga la’nat tamg‘asini bosadi. Ushbu drammatizm uch marotaba takrorlanib musiqiy obrazlarda qolib, yakka ijroshi tomoniga o‘sha fonda og‘ir salmoqli aytilgan ilk qayg‘uli xo‘rsinish aralash lirik obraz yana takrorlanadi. Shunday qilib, uning umumiy xarakteri qayg‘uli drama shaklida yaratilgan bo‘lsa ham, uning eng oxirgi akkordi shodlik tinchlik, kelajakka ishonch bilan yakunlanadi. Bunda kompozitorning mahoratida musiqiy tili ijrochilarning maromiga yetkazib ijro qilishi juda ahamiyatlidir.

Yangi yartilgan qo‘shiq – bu insonning ahdi, his-tuyg‘ularini ifodalovchi quvonchi deyiladi xalq aforizmlarida. Haqiqiy qo‘shiqchi – yuqori darajadagi ijrochi, ijodkor, tajribali pedagog, tarbiyachi va yangi hayotning yutuqlarini yuksaltiruvchi maslahatchidir. Kompozitorning ko‘tarinki qahramonlik marshlaridan boshlab, yurakdan chiqqan lirik kuy-qo‘shiqlariga qadar insonni o‘ziga tortuvchi emotsional mavhum kuchlarni anglatadi. Mana shunday ajoyib insonning ongiga ta’sir qiladigan qo‘shiqlarni N.Muxammeddinov juda ko‘p yaratib kelmoqdalar. “Nareste” balladasi misolida milliy shaklini yo‘qotmagan holda musiqiy dramatik janr qoidalariga asos o‘sha davrning insonga ta’sirini mana shunday musiqa ohangi orqali yetkazib berib, yangi hayotga yo‘l izlab uni topa olishdek imkonini so‘z va musiqa ifodasida mujassam qilgan. Ijodkorning turli qarashlari orqali ijod mahsuli yaratilib nafaqat musiqamiz balki, izlanuvchi talaba yoshlar ushun ham xazina boyligi sifatida xizmat qiladi [5].

Bugungi kunda o‘zbek va qoraqalpoq kompozitorlari ijodida ballada janrining ahamiyati oshib bormoqda. Janr nafaqat klassik musiqa, balki estrada, kino musiqasi, simfonik asarlar va vokal-cholg‘u ijodida ham faol qo‘llanilmoqda. Quyida zamonaviy o‘zbek kompozitorlari ijodida ballada janrining ahamiyati haqida tahliliy ma’lumotlar keltirilgan: Ballada janri, ayniqsa, romantik, dramatik yoki falsafiy mavzularda fikr va hissiyotlarni chuqurroq yetkazish imkonini beradi. Masalan, sevgi va sadoqat, Vatanga muhabbat, ayriliq, yo‘qotish, armon, Dilorom Saydaminovaning ba’zi vokal asarlarida inson ruhiyati, ayol obrazlari chuqur musiqiy ifodaga ega – bu balladaga xosdir. Kino va teatr musiqasida keng qo‘llanilmoqda. Zamonaviy o‘zbek kinolarida ko‘p hollarda ballada uslubida yozilgan qo‘shiqlar ishlatiladi. Ular obrazlarni ochishda, syujetni emotsional jihatdan kuchaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Estrada va pop musiqasida ballada – eng mashhur janrlardan biri o‘zbek estradasida ballada eng ko‘p ishlatiladigan janrlardan biri. Bu janr orqali estrada xonandalari tinglovchilar bilan hissiy

bogʻlanish oʻrnatadi. Sevara Nazarxon – “Oshiqlar”, Shahzoda – “Keragimsan”, Ozodbek Nazarbekov – “Armon”, “Muhabbat balladasi” – bularning barchasi estrada balladalari hisoblanadi. Ballada – janrlararo tajribalar uchun qulay asosdir. Zamonaviy kompozitorlar balladani: Simfonik poemalar, vokal-cholgʻu syuitalari, Jazz elementli ashulalar, Elektron musiqalar bilan uygʻunlashtirish orqali yangi shakllarda yaratmoqdalar.

Xulosa tariqasida ballada janri oʻz mohiyati bilan insoniylik, fidoyilik, vatanga muhabbat, tashvish, armon kabi ruhiy holatlarni tasvirlaydi. Bu esa uni nafaqat sanʼat, balki maʼnaviy-tarbiyaviy vosita sifatida ham ahamiyatli hisoblanadi. Bugungi oʻzbek kompozitorlari uchun ballada – bu lirik, dramatik va falsafiy mazmunni musiqada chuqur ifodalash vositasi. Janr zamonaviy musiqaning barcha yoʻnalishlarida – klassikadan tortib, pop va kinogacha faol qoʻllanilmoqda. Shu bois, ballada janrini bugungi oʻzbek musiqa madaniyatida oʻziga xos va zamonaviy ijodiy shakl sifatida oʻrganish muhim hisoblanadi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Abrams, M. H. *A Glossary of Literary Terms*, 7th Edition. Heinle & Heinle, 1999.
2. Baldick, Chris. *The Oxford Dictionary of Literary Terms*. Oxford University Press, 2015.
3. Энциклопедический музыкальный словарь. Издательство «Советская энциклопедия». –М., 1996. стр.37.
4. Abatbaeva, R. (2023). BALLAD GENRE BY COMPOSER NAJIMADDIN MUHAMMEDDINOV. *Modern Science and Research*, 2(10), 340-343.
5. Tsur, Reuven. *Poetry and Music: A Psychoanalytic View. Poetics Today*, Vol. 14, No. 1, 1993.
6. OʻzME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
7. Чистоткина Марина Владимировна учитель музыки и МХК МБОУ СОШ № 2 город Бор ижегородской области ИНТЕГРИРОВАННЫЙ УРОК НА ТЕМУ: «ЖАНР БАЛЛАДЫ В ЛИТЕРАТУРЕ И МУЗЫКЕ» Эксперимент и инновации в школе 2014/3. Ст.43
8. <https://www.culture.ru/s/slovo-dnya/ballada/>
9. <https://cyberleninka.ru/article/n/integrirovanny-uroke-na-temu-zhanr-ballady-v-literature-i-muzyke>
10. Muxammeddinov N. Qaraqalpaq kompozitorlari, muzika doʻretiwhileri ham izertlewshilerini antalogiyasi. – Nókis: “Qaraqalpaqstan”, 2024.
11. Abatbaeva R. Kompozitor Najimatdin Muxammeddinov ijodida tarixiy siymolar // *Journal of Culture and Art* 1.1 (2023). – P. 60-66.
12. Глебов Игорь (Асафьев). Айковский. МУЗО, НКП., 1919 г. – Стр. 3.

MAZMUNÍ

MUZÍKATANÍW

1	Султанова Е. ФОРТЕПИАННОЕ ТРИО ФРАНСИСА ПУЛЕНКА В КОНТЕКСТЕ ФРАНЦУЗСКОЙ КЛАССИЧЕСКОЙ МУЗЫКИ XX ВЕКА	3
2	Миркасымова Э.З. ИСПОЛНИТЕЛЬСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ КАК ВАЖНЕЙШИЙ ЭТАП ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МУЗЫКАНТА	9
3	Мирсолихова Х.М. МУСИҚИЙ АСАР УСТИДА ИШЛАШ ЖАРАЁНИ ҲАҚИДА	16
4	Тожибоев С. ИСЛОМ ДИНИ БИЛАН БОҒЛИҚ МАРОСИМ ВА БАЙРАМЛАРДАҒИ МУСИҚИЙ АНЪАНАЛАР	21
5	Abatbaeva R.A. KOMPOZITORLAR IJODIDA BALLADA JANRINING SHAKLLANISHI VA BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI	34

KÓRKEM ÓNER

6	Allanbaev R.O. “SUYMAGANGA SUYKALMA” MUSIQALI DRAMASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	41
7	Аббарова М. ЎЗБЕКИСТОН ВА ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН АЁЛ КОМПОЗИТОРЛАРИНИНГ ТАҒАҚҚУРИ МОҲИЯТИ	52
8	Aytmuratov B.K. AKTYOR INDIVIDUALLIGINI SHAKLLANTIRISHDA ROL YARATISH USLUBIYATINING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI	59
9	Azimov K. DIRIJYORLIK TEXNIKASINING NAZARIY MASALALARI	68
10	Eminov N. “ALPOMISH” MUSIQALI DRAMASIGA AYRIM CHIZGILAR	73
11	Gulmanov I. DÁSTÚRIY HÁM ZAMANAGÓY MUZÍKADA DÁP ÁSBABÍNÍN RAWAJLANÍW BASQÍSHLARÍ	80
12	Jaqsımuratova B. VOKAL ATQARIWSHÍLÍGÍNÍN TARIYXIY EVOLYUCIYASÍ	86
13	Karimova N. FESTIVAL TUSHUNCHASI VA ULARNIG ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	92
14	Kazakbayeva M. ARIYALAR USTIDA ISHLASH JARAYONIDA JO‘RNAVOZNING AHAMIYATI	98
15	Kutekeeva R. QORAQALPOG‘ISTON OPERA SAN’ATIDA MILLIY OBRAZLAR TALQINI	104

16	Matjanova M. ATQARIWSHILIQ MADENIYATIDA KONCERTMEYSTERDIN TIYKARGI WAZIYPALARI	110
17	Sharipov N. ZAMONAVIY FANDA AYOL OLIMALARNING O'RNI	117
18	Osman Kopadze. THE SOFT POWER IMPACT OF TURKISH TELEVISION SERIES ON UZBEK SOCIETY	122
19	Paxratdinova L. SKRIPKANING KELIB CHIQISHI VA IJROCHILIK AN'ANALARI	130
20	Shukurov A. TEATR SAN'ATINI RIVOJLANTIRISHDA TARIXIY VA ZAMONAVIY YONDASHUV	136
21	Tursunov E. AN'ANAVIY YO'NALISHDAGI XONANDALIK ASARLARI BOSHQA MILLAT VAKILLARI IJROCHILIGIDA	147
22	Измаилов А.М. ФОРМИРОВАНИЕ ОРКЕСТРОВОЙ ФУНКЦИИ ЗВУКОВЫСОТНЫХ УДАРНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ В XVI–XVII ВЕКАХ	153
23	Давыдова Т. СТИЛЕВЫЕ ОСОБЕННОСТИ СИМФОНИЧЕСКИХ ОПУСОВ ТУЛКУНА КУРБАНОВА	165
24	Миркасымова Э.З. ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ И СТИЛЕВЫЕ ПРИНЦИПЫ ФОРТЕПИАННЫХ ЦИКЛОВ Д.САЙДАМИНОВОЙ.	170
25	Charshemov J.A. QARAQALPAQ KOMPOZITORLARININ XOR USHIN JAZILGAN SHIGARMALARI	177

MUZIKA PEDAGOGIKASI

26	Djumaniyazov U.M. XALQ MUSIQA IJODIYOTINI O'RGANISHGA PEDAGOGIK YONDASHUV	187
27	Yusupaliyeva D. YOSHLARNING MA'NAVIY TARBIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA MADANIYAT VA SAN'ATNING O'RNI VA AHAMIYATI	196
28	Muratbaev A. ORFF METODI TIYKARIDA MUZIKA SABAQLARIDA SAZ ASBAPLARDAN PAYDALANIV	204
29	Мелькумова Э.И. ФИЛОСОФСКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВАНИЯ НАУЧНОГО ПОЗНАНИЯ: СТРУКТУРА, ЛОГИКА И ТРАНСФОРМАЦИЯ В КОНТЕКСТЕ СОВРЕМЕННОСТИ	210
30	Абдуллаева А. РАБОТА НАД ФОРТЕПИАННЫМИ ПЬЕСАМИ Р. ГЛИЭРА В КЛАССЕ ОБЩЕГО ФОРТЕПИАНО	217

31	Saidumarov I. ESTRADA XONANDALIGI SAN'ATI HAMDA VOKALDAN DARS BERISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARINING O'RNI VA AHAMIYATI	223
----	--	-----

JÁMIYETLIK-GUMANITAR PÁNLER

32	Бердиниязова Н.К. МЕҲНАТ ЖАМОАСИДА КАСАБА УЮШМАСИНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ	228
33	Пердебаева К.Р. БАСПАСӨЗ ДИЗАЙНЫ ҮСТИНДЕ ИСЛЕҰ (Газетаның арнаўлы санлары анализи мысалында)	234

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER
XABARSHÍSÍ
Ilimiy-metodikalıq jurnal

